



UDK: 808.3

*Ra'no ABDURAXMONOVA,*  
*Namangan davlat chet tillar instituti mustaqil izlanuvchisi*  
*E-mail: r.abdurakhmonova@mail.ru*

*NamDTU dotsenti P.Botirova taqrizi asosida*

### NEMIS TILIDAGI DEYKTIK BIRLIKLARNING SEMANTIK-STILISTIK XUSUSIYATLARI, ULARNING MA'NOSI, EMOTSIONAL TA'SIRI VA MATNDAGI VAZIFALARI

Аннотация

Mazkur maqolada nemis diniy matnlarida uchraydigan deyktik birliklarning semantik va stilistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Deyksis til tizimining muhim pragmatik komponenti bo'lib, u so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi kommunikativ munosabatlarni shakllantiradi hamda matnning mazmuniy yaxlitligini ta'minlaydi. Tadqiqot davomida shaxs, joy, vaqt va matn ichki deyksislarining nemis tilidagi ishlatilish xususiyatlari, ularning o'zbek tiliga tarjima jarayonida yuzaga keladigan semantik siljishlar hamda pragmatik o'zgarishlar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** deyksis, pragmatik lingvistik, diniy matn, nemis tili, tarjima, semantika, stilistika, shaxsiy deyksis, vaqt deyksisi, joy deyksisi, matn birligi.

### СЕМАНТИКО-СТИЛИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ДЕЙКТИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ НЕМЕЦКОГО ЯЗЫКА, ИХ ЗНАЧЕНИЕ, ЭМОЦИОНАЛЬНОЕ ВОЗДЕЙСТВИЕ И ФУНКЦИИ В ТЕКСТЕ

Аннотация

В данной статье анализируются семантические и стилистические особенности дейктических единиц, встречающихся в немецких религиозных текстах. Дейксис является важным прагматическим компонентом языковой системы, который формирует коммуникативные отношения между говорящим и слушающим, обеспечивая смысловую целостность текста. В ходе исследования были рассмотрены особенности употребления личного, пространственного, временного и текстуального дейксиса в немецком языке, а также выявлены семантические сдвиги и прагматические изменения, возникающие при их переводе на узбекский язык.

**Ключевые слова:** дейксис, прагматическая лингвистика, религиозный текст, немецкий язык, перевод, семантика, стилистика, личный дейксис, временной дейксис, пространственный дейксис, текстовая целостность.

### SEMANTIC AND STYLISTIC FEATURES OF DEICTIC UNITS IN THE GERMAN LANGUAGE, THEIR MEANING, EMOTIONAL IMPACT, AND FUNCTIONS IN THE TEXT

Annotation

This article analyzes the semantic and stylistic features of deictic units found in German religious texts. Deixis, as an essential pragmatic component of language, shapes the communicative relationship between the speaker and the listener and ensures the semantic integrity of the text. The study examines the use of personal, spatial, temporal, and textual deixis in the German language, as well as the semantic shifts and pragmatic changes that occur during their translation into Uzbek.

**Key words:** deixis, pragmalinguistics, religious text, German language, translation, semantics, stylistics, personal deixis, temporal deixis, spatial deixis, textual unity.

**Kirish.** Hozirgi zamon lingvistikasida deyksis hodisasi til tizimining markaziy pragmatik kategoriyalaridan biri sifatida qaraladi. Deyktik birliklar yordamida so'zlovchi nutq jarayonida shaxs, joy, vaqt va matn kontekstiga murojaat qiladi, shu orqali kommunikativ voqelikning dinamik modeli yaratiladi. Ayniqsa, diniy matnlarda bu birliklar nafaqat grammatik yoki semantik vazifani, balki ma'naviy, madaniy va hissiy yuklamani ham o'z zimmasiga oladi. Diniy diskursda "Men" (Ich), "Sen" (Du), "Bu yerda" (hier), "O'shanda" (damals) kabi deyktik shakllar orqali so'zlovchining pozitsiyasi, tinglovchining maqomi va matnning ruhiy konnotatsiyasi aniqlanadi. Shu bois, diniy matnlardagi deyksis faqat tilshunoslik nuqtayi nazaridan emas, balki madaniyatlararo kommunikatsiya va tarjima nazariyasi kontekstida ham muhim tadqiqot obyektidir.

Zamonaviy tarjimashunoslikda diniy matnlarning semantik aniqligini saqlab qolish, emotsional-ta'siriy ohangni uzatish va pragmatik ekvivalentlikni ta'minlash masalalari dolzarb hisoblanadi. Ayniqsa, nemis tilidagi diniy matnlarni

o'zbek tiliga tarjima qilishda deyktik birliklarning kontekstual ma'nosi ko'p hollarda to'g'ridan-to'g'ri tarjima bilan emas, balki pragmatik moslashtirish orqali ifodalanadi. Bunda tarjimon so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi ruhiy hamda ijtimoiy masofani, shuningdek matnning stilistik ohangini to'g'ri talqin qilishi talab etiladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Deyktik birliklarning til tizimidagi o'рни va ularning semantik-stilistik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Shulardan eng muhimlaridan biri sifatida Karl Buhlerning "Sprachtheorie: Die Darstellungsfunktion der Sprache" (1934) asari alohida ahamiyatga ega. Muallif tilni kommunikativ faoliyatning uch o'lchamida — so'zlovchi (Sender), tinglovchi (Empfänger) va voqealik (Gegenstand) o'rtasidagi munosabat sifatida tahlil qiladi. Buhler o'z nazariyasida "Origo" (markaz) tushunchasini kiritgan bo'lib, u har qanday deyktik birlikning boshlang'ich nuqtasini — ya'ni so'zlovchining pozitsiyasini ifodalaydi [1] Uning fikricha, shaxs, joy va vaqt deyksislari tilning ko'rsatish funksiyasi (Zeigfeld) orqali yuzaga chiqadi. Mazkur yondashuv

diniy matnlarni tahlil etishda ayniqsa dolzarbdir, chunki bu turdagi matnlarda “Men”, “Sen”, “Bu yerda”, “O’sha paytda” kabi birliklar matnning ruhiy markazini belgilab beradi. Masalan, Bibliyadagi “Ich bin bei euch alle Tage” (“Men sizlar bilanman har kuni”)[2] jumlasida “Ich” shaxsiy deyksisi nafaqat grammatik, balki ruhiy-emotsional markaz vazifasini bajaradi. Bühler nazariyasi bu kabi ifodalarning so’zlovchi subyekti bilan bog’liq semantik-stilistik kuchini tahlil qilishda metodologik asos bo’lib xizmat qiladi.

Ikkinchi muhim manba sifatida Stephen C. Levinsonning “Pragmatics” (1983) asari keltiriladi. U deyksisni pragmatikaning markaziy kategoriyasi sifatida baholab, uni kontekstga bog’liq ma’no hosil qiluvchi lingvistik mexanizm deb talqin qiladi. Levinson shaxs, joy va vaqt deyksislarini turli tillardagi kommunikativ model orqali qiyosiy tahlil qilgan va ularning madaniy hamda ijtimoiy konnotatsiyalarini ochib bergan. Unga ko’ra, deyktik birliklar nafaqat “ko’rsatish” vositasi, balki nutqning stilistik va emotsional ta’sir kuchini belgilovchi elementdir[3] Diniy matnlarda esa bu birliklar e’tiqodiy ishonch va ruhiy yaqinlikni ifodalovchi vosita sifatida namoyon bo’ladi. Misol tariqasida, nemis tilidagi “Der Herr ist nahe” (“Parvardigor yaqindir”) iborasida “nah” so’zi joy deyksisi bo’lishiga qaramay, u fizik masofani emas, balki ruhiy yaqinlikni ifodalaydi. Bu esa deyksisning semantik va stilistik ikki qirraliligini ko’rsatadi. Shuningdek, zamonaviy nemis tilshunosligida Konrad Ehlich, Diana Zaefferer, Hans Jürgen Heringer[4] kabi olimlar deyksis va kontekst o’rtasidagi o’zaro bog’liqlikni tadqiq etganlar. Ularning tadqiqotlarida ayniqsa intertekstual deyksis tushunchasiga e’tibor qaratiladi – ya’ni matn ichida boshqa matnga, ilohiy manbaga yoki muqaddas shaxsga murojaat qiluvchi deyktik shakllar tahlil qilinadi.

Mazkur ilmiy qarashlar asosida aytish mumkinki, diniy matnlardagi deyktik birliklar nafaqat grammatik yoki semantik ko’rsatkichlar, balki madaniyatlararo ma’naviy aloqa vositalari hamdir. Ular orqali diniy matn o’quvchi bilan ruhiy mulohot o’rnatadi, shu sababli ularning tarjima jarayonida semantik-stilistik ekvivalentlikni saqlash tarjimon oldidagi eng katta masalalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning nazariy asoslari Karl Bühler (1934), Stephen C. Levinson (1983), Konrad Ehlich (1982) hamda Hans Jürgen Heringer (1991) kabi olimlarning deyksis, pragmatika va kommunikativ lingvistika bo’yicha ishlari asosida shakllantirildi. Ushbu manbalar orqali deyksisning funksional va kontekstual tabiati, uning tilning ko’rsatish, murojaat va matn bog’lovchi funksiyalarini amalga oshirishdagi roli aniqlanadi. Tadqiqot materiali sifatida nemis tilidagi Injil matnlari, shuningdek, Martin Luther tarjimasidagi “Die Bibel” (1545)[5] va zamonaviy diniy matnlardan olingan parchalardan foydalanildi. Shuningdek, ularning o’zbek tiliga tarjimalari tahlil qilinib, deyktik birliklarning tarjimada semantik siljishlar, emotsional ohangdagi o’zgarishlar hamda madaniy tafovutlar asosida qanday talqin etilganligi aniqlangan.

Tahlil jarayonida deyktik birliklarning turlari (shaxs, joy, vaqt va matn deyksislari) alohida-alohida o’rganildi. Har bir tur bo’yicha konkret kontekst namunalar tanlab olindi va ularning semantik-stilistik funksiyasi tahlil qilindi. Masalan, “Ich bin der Weg, die Wahrheit und das Leben” (“Men yo’lman, haqiqatman va hayotman”) [6] misolida “Ich” deyksisi shaxsiy markazni ifodalash bilan birga emotsional-ruhiy dominanta vazifasini ham bajaradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotning metodologik asosi kontrastiv-lingvistik, pragmalingvistik va stilistik tahlil yondashuvlariga tayangan holda ishlab chiqilgan. Tadqiqotning bosh maqsadi — nemis diniy matnlarida uchraydigan deyktik birliklarning semantik-stilistik xususiyatlarini aniqlash, ularning o’zbek tiliga tarjima

jarayonidagi pragmatik o’zgarishlarini tahlil qilish, hamda matnning emotsional va kommunikativ yaxlitligini saqlash imkoniyatlarini ochib berishdan iborat. Tadqiqot natijalarini umumlashtirishda deduktiv va induktiv usullar uyg’un qo’llanilib, har bir tahlil bosqichida nazariy xulosalar amaliy dalillar bilan mustahkamlandi. Ushbu metodologik yondashuv nemis diniy matnlarida deyktik birliklarning semantik-stilistik tizimini chuqur tahlil qilish, ularning tarjima jarayonidagi lingvopragmatik o’zgarishlarini aniqlash va madaniy konnotatsiyalarni saqlab qolish mexanizmini ochib berish imkonini beradi.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot davomida nemis diniy matnlarida uchraydigan deyktik birliklar shaxsiy, joy, vaqt va matn ichki deyksis turlari bo’yicha tahlil qilindi. Ularning semantik yuklamasi, stilistik vazifasi va tarjima jarayonidagi o’zgarishlari misollar asosida tahlil etildi.

1. Shaxsiy deyksis (Personendeixis). Nemis diniy matnlarida shaxsiy deyksislar matnning ruhiy va emotsional markazini ifodalaydi. Masalan, “Ich bin bei euch alle Tage” (“Men sizlar bilanman har kuni”)[7] iborasida “Ich” so’zlovchining subyektiv pozitsiyasini bildiradi. Biroq bu deyksis grammatik jihatdan birinchi shaxsni anglatgan bo’lsa-da, diniy matnda u ilohiy shaxs (Xudo yoki Iso) ma’nosida ishlatiladi. Shu sababli, tarjimada “Men” so’zini oddiy insoniy subyekt sifatida qabul qilish semantik xatolikka olib kelishi mumkin. O’zbek tarjimasida “Men sizlar bilanman” shakli to’g’ri bo’lsa-da, uni ruhiy-emotsional urg’u bilan yetkazish zarur.

Bu holat shuni ko’rsatadiki, shaxsiy deyksisni tarjima qilishda grammatik moslik emas, balki pragmatik moslashuv ustuvor ahamiyatga ega. Tarjimon “Ich” birlikining semantik konnotatsiyasini anglab, uning orqasidagi diniy subyektni to’g’ri talqin etishi lozim.

2. Joy deyksisi (Lokaldeixis). Joy deyksis diniy matnlarda ko’pincha metaforik yoki ramziy ma’noda ishlatiladi. Masalan, “Der Herr ist nahe” (“Parvardigor yaqindir”)[8] iborasida “nahe” fizik masofani emas, balki ruhiy yaqinlikni bildiradi. Shu sababli, o’zbek tiliga to’g’ridan-to’g’ri “Parvardigor yaqin joyda” deb tarjima qilish semantik xatolikni keltirib chiqaradi. To’g’ri tarjima — “Parvardigor bizga yaqin” shaklida bo’lib, bu holda so’zning emotsional-pragmatik konnotatsiyasi saqlanadi. Bu tahlil diniy matn tarjimasida joy deyksisning madaniy va semantik kontekstdagi rolini aniqlash zarurligini ko’rsatadi. Chunki joy tushunchasi diniy diskursda mavjudlik yoki ilohiy qudratning yaqinligini anglatadi.

3. Vaqt deyksisi (Tempordeixis). Vaqt deyksis diniy matnlarda abadiy va ilohiy vaqt konsepsiyasini ifodalashda ishlatiladi. Masalan, “In jener Zeit sprach Jesus zu seinen Jüngern...” (“O’sha vaqtda Iso shogirdlariga dedi...”) iborasida “in jener Zeit” tarixiy vaqtga ishora qilsa-da, diniy kontekstdagi ma’nosi vaqt chegarasidan tashqaridagi voqelikni ifodalaydi. Shu bois, bu iborani o’zbek tiliga “O’sha paytda” deb tarjima qilish grammatik jihatdan to’g’ri, ammo diniy jihatdan chegaralangan ma’no beradi. Shu o’rinda “O’sha muborak vaqtda” shaklidagi tarjima semantik-stilistik jihatdan yanada to’g’riroq bo’ladi. Bu misol vaqt deyksisini tarjimada kontekstga mos kengaytirish orqali matnning ruhiy chuqurligini saqlab qolish zarurligini ko’rsatadi.

4. Matn ichki deyksisi (Textdeixis). Diniy matnlarda matn ichki deyksislar oldingi yoki keyingi voqealarga ishora qilish orqali mantiqiy bog’lanishni ta’minlaydi. Masalan, “Wie oben gesagt wurde...” (“Yuqorida aytilganidek...”)[9] iborasi matn ichida ilgari berilgan axborotni qayta eslatish uchun ishlatiladi. Tarjimada bu turdagi birliklarni “Yuqorida qayd etilganidek” yoki “Oldin aytilganidek” tarzida ifodalash orqali matn yaxlitligini saqlash mumkin. Bu holat shuni ko’rsatadiki, diniy matnlar tarjimasida intertekstual bog’lanishlarni ham

e'tiborga olish zarur, chunki ular diniy matnning mantiqiy tuzilmasini va stilistik soddaligini ta'minlaydi.

Mazkur tadqiqot natijalariga tayangan holda quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

Deyktik birliklarning tarjimasi uchun maxsus metodik qo'llanma ishlab chiqish. Diniy matnlar tarjimasida deyksislarning semantik va pragmatik xususiyatlarini izchil tushuntiruvchi, real matn misollariga asoslangan metodik qo'llanma yaratilsa, tarjimonlar uchun amaliy yordam bo'ladi. Bu ayniqsa shaxsiy va joy deyksislarining kontekstual o'zgarishini to'g'ri talqin qilishda muhimdir.

Pragmatik ekvivalentlikni ta'minlash uchun tarjimon tayyorlov jarayonida lingvopragmatik treninglar tashkil etish. Deyktik birliklarning mazmuni faqat grammatik shakllar bilan emas, balki matnning kommunikativ vaziyati, muallifning diniy-ma'naviy pozitsiyasi va auditoriya xususiyatlariga ham bog'liq. Shu bois tarjimonlar uchun interaktiv mashg'ulotlar, real matn tahlili asosidagi seminarlar o'tkazish zarur.

Nemis va o'zbek diniy matnlarini kontrastiv tahlil qilish uchun elektron korpus yaratish. Bu korpusda turli janrdagi diniy matnlar (Bibliya tarjimalari, diniy risolalar, voizlik matnlari) joylashtirilib, deyktik birliklarning kontekstual ishlatilishini tizimli tahlil qilish imkoniyati yaratiladi. Korpus asosida statistik tahlillar olib borish tarjima strategiyalarini ilmiy asosda ishlab chiqish imkonini beradi.

Diniy matnlarni tarjima qilishda madaniy kontekstni saqlash strategiyasini takomillashtirish. Deyksislar ko'pincha madaniy va diniy mazmuni ifodalaydi. Shu sababli tarjimada ma'no yo'qotilishi yoki noto'g'ri talqinlarning oldini olish uchun madaniy ekvivalentlikni saqlovchi tarjima strategiyalarini ishlab chiqish lozim.

Universitet o'quv dasturlariga "Pragmatik tarjima" va "Diniy matnlar lingvistikasi" kabi fanlarni kiritish. Ushbu fanlar orqali talabalar deyksis, presuppozitsiya, implikatura kabi pragmatik kategoriyalarni chuqur o'rganadi, bu esa tarjimonlik kompetensiyasini oshiradi.

Ilmiy izlanishlarni kengaytirish. Kelgusida deyktik birliklarning boshqa janrlardagi — masalan, publitsistik, badiiy yoki siyosiy nutqlardagi — o'ziga xos xususiyatlarini ham qiyosiy tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Bu orqali umumiy pragmatik tahlil qonuniyatlar aniqlanadi.

Umuman olganda, taklif etilgan chora-tadbirlar diniy matn tarjimasining sifatini oshirish, deyksisning kommunikativ va stilistik funksiyalarini chuqurroq o'rganish hamda nemis va o'zbek tillari o'rtasidagi pragmatik muvozanatni saqlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, nemis diniy matnlarida shaxsiy, joy va vaqt deyksislari o'zbek tiliga tarjima jarayonida nafaqat grammatik, balki pragmatik va stilistik o'zgarishlarga uchraydi. Bu o'zgarishlar ko'pincha matnning emotsional ta'sirini, ruxoniy ohangini va ma'naviy konnotatsiyasini to'liq aks ettirishni qiyinlashtiradi. Shu sababli diniy matn tarjimasida semantik ekvivalentlik bilan bir qatorda pragmatik ekvivalentlikni ham ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Kontrastiv tahlil natijasida aniqlanishicha, o'zbek tilida shaxsiy deyksislar ko'proq hurmat ifodalovchi va marhamatga asoslangan shakllarda qo'llanadi, nemis tilida esa ular grammatik neytrallikka ega, biroq intonatsiya va kontekst orqali diniy iliqlik hosil qiladi. Vaqt va joy deyksislari esa nemis matnlarida ramziy va metaforik ma'no kasb etib, tarjimada ular madaniy konnotatsiya bilan moslashtirilishi zarur.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida deyksisni o'rganishda pragmatik, kontrastiv-lingvistik va tarjima nazariyasi yondashuvlarining integratsiyasi samarali natija bergani aniqlandi. Bu yondashuvlar tarjima jarayonida yuzaga keladigan semantik siljishlarni, kontekst o'zgarishlarini va kommunikativ maqsadlarning transformatsiyasini chuqurroq tushunish imkonini berdi.

**Xulosa.** Yakuniy xulosa shundan iboratki, diniy matn tarjimasida deyktik birliklarning to'g'ri talqini nafaqat til kompetensiyasi, balki madaniy va diniy kontekstni sezish qobiliyati bilan ham chambarchas bog'liqdir. Shu bois tarjimonlik amaliyotida pragmatik yondashuvni kuchaytirish, deyksislarni tahlil qilish uchun madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish zarur.

Mazkur tadqiqot natijalari diniy matn tarjimasida kontrastiv lingvistik va pragmatik yondashuvlar yo'nalishlarida nazariy asos bo'lib xizmat qilishi, shuningdek tarjimonlar uchun amaliy qo'llanma sifatida foydalanilishi mumkin.

#### ADABIYOTLAR

1. Bühler, K. (1934). *Sprachtheorie: Die Darstellungsfunktion der Sprache*. Jena: Fischer Verlag.
2. Fillmore, C. J. (1997). *Lectures on Deixis*. Stanford: CSLI Publications.
3. Levinson, S. C. (1983). *Pragmatics*. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Lyons, J. (1995). *Linguistic Semantics: An Introduction*. Cambridge: Cambridge University Press.
5. Nord, C. (2018). *Translating as a Purposeful Activity: Functionalist Approaches Explained*. New York: Routledge.
6. Nida, E. A., & Taber, C. R. (2003). *The Theory and Practice of Translation*. Leiden: Brill.
7. Wierzbicka, A. (2006). *English: Meaning and Culture*. Oxford: Oxford University Press.
8. Qodirov, A. (2021). *Tarjima nazariyasiga kirish*. Toshkent: Fan nashriyoti.
9. Rasulov, M. (2019). *Til pragmatikasi va lingvistik tahlil*. Toshkent: TDPU nashriyoti.
10. Habermas, J. (1998). *The Theory of Communicative Action*. Boston: Beacon Press.